



**FIZIKADA YORUG'LIKNING SUYUQLIKLARDA SINISHI VA
DISPERSIYASINI REAL VA VERTUVAL TAJRIBALAR ASOSIDA
O'RGANISH**

Xoliyorova Aziza

Xoliyorovaaziza038@gmail.com

Raxmatullayeva Rozifa

Rozifa4055605@gmail.com

DTP Fizika ta'limgan yo'nalishi 2-kurs talabalari

Annotatsiya: Fizika fani eksperimental fan hisoblanadi. Shu sababdan fizikaviy qonuniyatlar va hodisalarini chuqurroq tushunish, ularni real hayotda qo'llash imkoniyatlarini ochish uchun labaratoriya ishlarining o'rni juda katta. Ushbu tezisda Oliy ta'limgan muassalarida fizikadan yorug'likning suyuqliklarda sinishi va dispersiyasining real va virtual tajribalar asosida o'rganish tajribalarini bajarishga kompleks yondashuvning uslubiy asoslari tavfsiflangan. Fizika fanini o'qitishda yangi bo'lgan real va virtual tajribalardan foydalanish usullarining afzalliklari bayon qilingan.

Kalit so'lar: real labaratoriya, virtual labaratoriya, refraktometr, yorug'lik sinishi, yorug'lik dispersiyasi.

Kirish. Yorug'likning sinishi. Yorug'lik bir muhitdan (masalan, havodan) boshqa muhitga (masalan, suyuqlikka – suv, spirt, glitserin va boshqalar) o'tganida uning tarqalish yo'nalishi o'zgaradi. Bu hodisa yorug'likning sinishi deyiladi. Sinishning asosiy sababi – yorug'likning har xil muhitlarda tarqalish tezligi farqli bo'lishidir. Suyuqlikda yorug'likning tezligi havodagiga nisbatan kichikroq bo'ladi, shuning uchun yorug'lik nurlari qiyshayadi.

Yorug'likning sinish qonuni:

1. Tushuvchi nur, singan nur va muhit chegarasiga nurning tushish nuqtasidan o'tkazilgan perpendikulyar bir tekislikda yotadi.



2. Tushish burchagi sinusining sinish burchagi sinusiga nisbatli chegaradosh muhitlarning optik xususiyatiga bog'liq bo'lgan o'zgarmas kattalik bo'lib, uni ikkinchi muhitning birinchi muhitga nisbatan nur sindirish ko'rsatkichi deyiladi.

$$\frac{\sin\alpha}{\sin\beta} = \frac{n_2}{n_1}; \quad \frac{\sin\alpha}{\sin\beta} = n_{12}; \quad \text{yoki} \quad n_1 \cdot \sin\alpha = n_2 \cdot \sin\beta.$$

Tushish va sinish burchaklari sinuslari nisbatining, yorug'lik tezligi orqali ifodasi:

$$\frac{\sin\alpha}{\sin\beta} = \frac{v_1}{v_2}.$$

Yorug'lik nuri vakuumdan biror muhitga o'tgan holda mazkur muhitning vakuumga nisbatan sindirish ko'rsatkichi muhitning absalyut sindirish ko'rsatkichi deyiladi.

$$n = \frac{c}{v}$$

bu yerda: c — yorug'likning vakuumdagi tezligi, v — yorug'likning muhitdagi tezligi.

Agar yorug'lik absalyut sindirish ko'rsatkichi n_1 bo'lgan muhitdan absalyut sindirish ko'rsatkichi n_2 bo'lgan muhitga o'tsa, muhitlar absalyut sindirish ko'rsatkichlarining nisbatli birinchi muhitning ikkinchi muhitga nisbatan nisbiy sindirish ko'rsatkichiga teng bo'ladi:

$$n_{21} = \frac{n_1}{n_2}.$$

Nur optik zichligi (n_1) kichik bo'lgan muhitdan optik zichligi (n_2) katta bo'lgan muhitga o'tganida ($n_1 < n_2$), tushish burchagi sinish burchagidan katta bo'ladi. ($\alpha > \beta$) u holda $v_1 > v_2$.

Nur optik zichligi (n_1) katta bo'lgan muhitdan optik zichligi (n_2) kichik bo'lgan muhitga o'tganida ($n_1 < n_2$), sinish burchagi tushish burchagidan katta bo'ladi. ($\alpha < \beta$) u holda $v_1 < v_2$.

Yorug'likning dispersiyasi. Dispersiya – bu yorug'likning turli to'lqin uzunliklari (ya'ni, ranglari) uchun muhitdagi tarqalish tezligining farqlanishi hodisasiidir. Buning natijasida oq yorug'lik suyuqlikdan o'tganda spektrga ajraladi.



Dispersiya so‘zi lotincha *dispersio* — sochilish so‘zidan olingan. Yorug‘lik dispersiyasini birinchi bo‘lib ingliz fizigi *I. Nyuton* kuzatgan. Dispersiya yorug‘lik to‘lqin nazariyasi asosida tushuntirish mumkin bo‘lgan hodisalardan biridir.

Suyuqlikdagi dispersiya shuni ko‘rsatadiki, har xil rangdagi nurlar suyuqlikda turli burchaklar ostida sinadi: Qisqa to‘lqinli (ko‘k) nurlar ko‘proq sinadi, Uzoq to‘lqinli (qizil) nurlar esa kamroq sinadi. Natijada suyuqlik prizmasidan yoki tomchisidan o‘tgan yorug‘lik spektrga — ranglarga ajralgan holda ko‘rinadi (masalan, yomg‘irdan keyingi kamalak). Yorug‘lik suyuqlikka kirganda tezligi kamayadi va yo‘nalishi o‘zgaradi (sinadi). Suyuqlikda har xil rangli nurlar turlicha sinadi, bu esa dispersiyani keltirib chiqaradi. Dispersiya natijasida oq yorug‘lik ranglarga ajraladi.

Dispersiyani tavsiflash uchun D qiymati tanlanadi, u o‘rtacha dispersiya deb ataladi va quyidagicha aniqlanadi:

$$D = n_F - n_C.$$

bu yerda: n_F va n_C mos ravishda $\lambda = 486,1\text{nm}$ (ko‘k chiziq, F) va $\lambda = 653,3\text{nm}$ (qizil chiziq, C) uchun vodorod spektridagi sinish ko‘rsatkichlaridir.

Amaliy ishlar uchun dispersiya koeffitsienti yoki Abbe soni (V) ko‘proq ishlatiladi:


$$V = \frac{n_D - 1}{n_F - n_C},$$

bu yerda: n_D — to‘lqin uzunligi $\lambda = 589,3\text{nm}$ uchun sinish ko‘rsatkichi (ikkita yaqin sariq natriy chiziqlari uchun D o‘rtacha qiymati). D — o‘rtacha dispersiyani bildiradi: ko‘k va qizil chiziqlar uchun sinish ko‘rsatkichlari farqi. V — Abbe soni: dispersiya ta’sirini hisobga olgan holda muhitning sinishi xossalarni ifodalaydi.

Yorug‘likning suyuqliklarda sinishi va dispersiyasini real va virtual labaratoriya asosida kuzatdik.

Real laboratoriya bu — o‘quvchi yoki talabaning fizik hodisalarini bevosita tajriba orqali o‘rganadigan, uskunalar bilan ishlaydigan va o‘lchov olib boradigan muhitdir. Bunda haqiqiy yorug‘lik manbalari, linzalar, prizmalar, qabul qiluvchilar va o‘lchov asboblari ishlatiladi.

Real labaratoriyada kerakli jihozlar.




Uskunaning tarkibi: 1 - yorug‘lik manbai; 2 - yorug‘lik filtrlarini mahkamlash uchun mandrel; 3 – kollimator ob’ektiv; 4 - aylanuvchi stol; 5 - ichi bo‘sh prizma; 6 - kichik ekran; 7 - katta ekran; 8 - optik skameyka; 9 – baholovchi.


Real laboratoriyaning asosiy afzalligi shundaki, u talabaning qo‘lda ishlash ko‘nikmasini, amaliy bilimini, kuzatuvchanligini va ehtiyyotkorlikni rivojlantiradi. Masalan, optik skameyka yordamida sinish burchagi yoki dispersiya hodisasini o‘lchaganda, talabalar buni o‘z qo‘llari bilan amalga oshiradi, bu esa bilimni ongli va chuqur qabul qilishga xizmat qiladi.

Refraktometr — bu suyuqliklar, qattiq jismlar yoki gazlarning sinish ko‘rsatkichini (refraksiyon ko‘rsatkichini) aniqlash uchun ishlatiladigan optik asbobdir.

Refraktometrda yorug‘lik bir ma’lum burchak ostida namunaga (masalan, suyuqlikka) yo‘naltiriladi. Sinish hodisasi ro‘y bergach, hosil bo‘lgan kritik burchak (chegara burchagi) yoki yorug‘lik tarqalishi orqali sinish ko‘rsatkichi aniqlanadi.



Refraktometr (o'ng ko'rinish): 1- holat; 2 - ko'zoynak; 3- yorug'lik / soya chegarasini va ko'rsatkichlar shkalasini siljitim uchun volan; 4-kompensator volan; 5-haroratni nazorat qilish uchun ullanishlar




Refraktometr (chap ko'rinish): 1- korpus; 2 - yorituvchi prizma bilan harakatlanuvchi ramka; 3 - termometr; 4 - damper; 5 - o'lchov prizmasi bo'lgan ramka; 6 - yig'iladigan oyna; 7- korpus qopqog'i; 8 – volanning mahkamlagichi; 9 - optik detal; 10 - haroratni nazorat qilish uchun fitting; 11- prizmani sozlash vinti (korpusning orqa devorida)

Virtual laboratoriya — bu kompyuter yoki planshet orqali simulyatsiya qilingan tajriba muhiti bo'lib, talaba unda turli fizik hodisalarini (yorug'likning sinishi, interferensiya, difraksiya va boshqalar) vizual tarzda bajara oladi.


Bunday laboratoriylar juda qulay, tejamkor va tez bajariladigan bo‘lib, istalgan joyda — maktabda, uyda yoki onlayn ta’limda ishlatalishi mumkin. Masalan, “PhET” dasturi yordamida talabalar bir necha soniya ichida muhit shinish ko‘rsatkichlarini o‘zgartirishi, burchakni sozlashi yoki to‘lqin uzunligini o‘zgartirib natijani darhol ko‘rishi mumkin.

Keling virtual laboratoyida olingan natijalarni ko‘rib chiqamiz.



1-rasm. Yorug‘likning sinishi n_1 -havo va n_2 -suv chegarasida.


Havo ichida harakatlanayotgan yorug‘lik nuri suv yuzasiga ma’lum bir burchak ostida kelib tushmoqda. Suvga o‘tganda yorug‘likning tarqalish yo‘nalishi o‘zgaradi — shinish yuz beradi. Shinish qoidasiga ko‘ra, nur zichroq muhitga (suvga) o‘tganda uning tarqalish yo‘nalishi normal chiziqqa yaqinlashadi (shinish burchagi tushish burchagidan kichikroq bo‘ladi). Xulosa shuki Havo-suv chegarasida yorug‘lik suyuqlikdagi (suvdagagi) harakatida tezligini kamaytiradi va yo‘nalishini normallik



chizig‘iga yaqinlashtiradi. Sinish burchagi har doim kirish burchagidan kichikroq bo‘ladi, chunki suv havoga nisbatan optik zichroq muhitdir.

2-rasm. Yorug‘likning sinishi n_1 -havo va n_2 -shisha chegarasida.

Havo ichida harakatlanayotgan yorug‘lik nuri shisha yuzasiga ma’lum bir



burchak ostida kelib tushmoqda. Shishaga o‘tganda yorug‘lik nuri sinib, normallik chizig‘iga (vertikal) yaqinlashadi. Bu tajribada yorug‘lik nurining intensivligi ham o‘lchangan: 90,81% yorug‘lik o‘tmoqda (qolgan qismi qaytmoqda). Xulosa shuki Havo-shisha chegarasida yorug‘likning sinish darajasi suvnikidan kattaroq bo‘ladi, chunki shisha suvga nisbatan optik jihatdan zichroq. Yorug‘lik shishaga kirganda tezligi keskin kamayadi, va tarqalish normallik chizig‘iga yaqinlashadi. Yorug‘lik nurlarining 90,81% qismi shisha ichiga o‘tmoqda, bu yuqori o‘tish koeffitsientini ko‘rsatadi.

3-rasm. Yoru‘glik dispersiyasi. Havoda (n_1) turgan ichi suv (n_2) bilan to‘ldirilgan prizmadan o‘tayotgan oq yorug‘lik.

Virtual laboratoriya kuzatuvi: Atrof-muhit: Havo, sinish ko‘rsatkichi $n_1 = 1,00$. Prizma ichida: Suv to‘ldirilgan, sinish ko‘rsatkichi $n_2 = 1,33$. Oq yorug‘lik havoda harakatlanib, suv bilan to‘ldirilgan prizmaga kiradi. Prizma yuzasida yorug‘lik sinadi va prizmaning ichidan o‘tganda ikkinchi marta sinadi. Sinish natijasida oq yorug‘lik ranglarga ajraladi — ya’ni, dispersiya hodisasi kuzatiladi.



Prizmadan chiqqandan so‘ng yorug‘lik spektral ranglarga tarqalayapdi: Violet (ko‘k), indigo, ko‘k, yashil, sariq, to‘q sariq va qizil ranglar. Har bir rang nurning to‘lqin uzunligi turlicha, shuning uchun suvdagi sinish ko‘rsatkichi ham to‘lqin uzunligiga bog‘liq tarzda o‘zgaradi. Qisqa to‘lqin uzunlik (masalan, ko‘k rang) suvda ko‘proq sinadi, uzun to‘lqin uzunlik (masalan, qizil rang) esa kamroq sinadi.

XULOSA. Havo-suv prizmali tizimda oq yorug‘lik spektrga ajraladi. Ko‘k va binafsha nurlar ko‘proq sinadi, qizil nurlar esa kamroq sinadi. Natijada, biz yorug‘likning tabiiy spektrini (kamalak ranglarini) ko‘ramiz.

Real laboratoriyaning asosiy afzalligi shundaki, u talabaning qo‘lda ishslash ko‘nikmasini, amaliy bilimini, kuzatuvchanligini va ehtiyyotkorlikni rivojlantiradi. Masalan, optik skameyka yordamida sinish burchagi yoki dispersiya hodisasini o‘lchaganda, talabalar buni o‘z qo‘llari bilan amalga oshiradi, bu esa bilimni ongli va chuqur qabul qilishga xizmat qiladi.

Ammo real laboratoriyaning kamchiliklari ham mavjud. Uskunalar qimmat bo‘lishi mumkin, ularni doimiy sozlash va saqlash kerak. Har bir talabaga alohida vaqt kerak bo‘ladi, bu esa o‘quv jarayonini sekinlashtiradi. Shuningdek, real tajribalarda xatoliklar ko‘p bo‘ladi — noto‘g‘ri o‘rnatilgan burchak yoki chiroq yo‘nalishi natijalarni buzishi mumkin. Yana bir muhim jihat – xavfsizlik masalasi. Masalan, lazer nurlarini ishlatishda ko‘zga tushmasligi uchun ehtiyyot bo‘lish talab etiladi.

Virtual laboratoriyaning eng katta afzalligi — u 100% xavfsiz, tezkor, interaktiv va ko‘plab tajribalarni qisqa vaqtida bajarish imkonini beradi. Talaba istalgancha xatoga yo‘l qo‘yishi, uni tuzatishi va takror-takror sinovlar o‘tkazishi mumkin.

Ammo bu laboratoriyalarda haqiqiy amaliyat hissi yo‘q. U real hayotdagi muammolarni yechishga emas, balki nazariy tushunchani aniqlashtirishga xizmat qiladi. Asbobni qo‘lda sozlash, burchakni aniqlash yoki ko‘z bilan bevosa ko‘rish tajribasi bo‘lmaydi. Bu esa, ayniqsa, texnik soha mutaxassislari uchun yetarli emas.

Real va virtual laboratoriylar har biri o‘z o‘rnida foydali va ta’lim jarayonining muhim bo‘g‘inlaridir. Real laboratoriylar talabalarga haqiqiy tajriba orttirish, qo‘lda ishslash va fizik hodisalarni bevosa kuzatish imkonini bersa, virtual laboratoriylar



tejamkorlik, xavfsizlik, mustaqil o‘rganish va ko‘rgazmali tahlil qilishda juda foydalidir.

Shuning uchun zamonaviy fizika va tabiiy fanlar ta’limida ikkala usulni birgalikda ishlatish eng to‘g‘ri yondashuv hisoblanadi. Avval virtual laboratoriyada nazariy tushuncha beriladi, so‘ng real laboratoriyada amaliy ko‘nikma hosil qilinadi. Bu esa o‘quvchining fizik tafakkurini, tajribaviy bilimini va hayotiy muammolarni hal qilish salohiyatini kuchaytiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. U. Omonqulova, F. To‘raxonov, & Sh. Zamonova, «Fizika o‘qitishda namoyish tajriba qurilmalarini yasash malaka va ko‘nikmalarini shakllantirish metodikasi», Tadbirkorlik va Pedagogika. Ilmiy-uslubiy jurnal. ISSN: 2181-2659. [1/2025]., сс. 100–112, 20 февраль 2025 г. [Онлайн]. Доступно на: <https://inlibrary.uz/index.php/entrepreneurship-pedagogy/article/view/68412>
2. U. Omonqulova и G. Choriyeva, «Umumta’lim maktablarida fizikani o‘qitishda eksperimental yondashuv», Science and innovation. Aniq va tabiiy fanlarning rivojlanish istiqbollari” Respublika ilmiy-amaliy anjumani, сс. 322–326, 7 май 2024 г. [Онлайн]. Доступно на: <https://zenodo.org/records/11116073>
3. «PQ-5032-сон 19.03.2021. Fizika sohasidagi ta’lim sifatini oshirish va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida». Просмотрено: 16 марта 2025 г. [Онлайн]. Доступно на: <https://lex.uz/uz/docs/-5338558>
4. U. Omonqulova & F. To‘raxonov, «Fizika fanini real va virtual namoyish tajribalar asosida o‘qitish», Educational Research in Universal Sciences, сс. 110–117, 25 декабрь 2024 г. [Онлайн]. Доступно на: <https://researchweb.uz/index.php/erus/article/view/197>
5. U. Omonqulova & F. To‘raxonov, «Fizikani namoyish tajribalar yordamida takomillashtirishning metodik asoslari», Educational Research in Universal Sciences, сс. 323–329, yil fevral 2024 г. [Онлайн]. Доступно на: <https://zenodo.org/records/10652865>
6. U. Omonqulova, A. Yo‘ldoshev, и J. Ochilov, «Fizikani o‘qitishda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan (AKT) foydalanishning afzalliklari va



kamchiliklari», Journal of universal science research, 12 июль 2024 г. [Онлайн].

Доступно на: <https://inlibrary.uz/index.php/universal-scientific-research/article/view/36309>

7. U. Omonqulova, G. Choriyeva, и B. Toshtemirov, «Umumta’lim maktablarida fizikadan namoyish tajribalarining o‘quv mazmundorligini aniqlash va ularni joriy etish metodikasi. “Aniq va tabiiy fanlarning rivojlanish istiqbollari», Science and innovation. 7 май 2024 г. [Онлайн]. Доступно на:

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11116057>

8. U. Omonqulova, M. Xolmurodov, и D. Hakimov, “Umumta’lim maktablarida fizika o’qitishda zamonaviy namoyish tajribalar asosida takomillashtirish”, Science and innovation. Aniq va tabiiy fanlarning rivojlanish istiqbollari” respublika ilmiy-amaliy anjumani, сс. 529–532, 7 май 2024 г. [Онлайн]. Доступно на: <https://doi.org/10.5281/zenodo.11147306>

9. F. To‘raxonov, «Fizik jarayonlarni kompyuterda modellashtirishning metodik asoslari.», Pedagogik mahorat ilmiy-nazariy va metodik jurnal, сс. 105–108, 20 декабря 2021 г. [Онлайн]. Доступно на:

<https://buxdu.uz/media/jurnallar/Pedagogik%20mahorat%202021%20yil%206-%20son.pdf>

10. F. To‘raxonov, «Ixtisoslashgan maktablarda fizikaviy jarayonlarni modellashtirish imkoniyatini beruvchi dasturiy ta’mnotlar tahlili», Ta’lim va innovatsion tadqiqotlar xalqaro ilmiy – metodik jurnal, сс. 174–177, 12 февраль 2022 г.